


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

***60730900 – Shahar qurilishi va loyihalash bakalavriat ta'lim
yo'nalishining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" 06 dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60730900 - **Shahar qurilishi va loyihalash** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi va kechki ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60730900 - Shahar qurilishi va loyihalash malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60730900 - Shahar qurilishi va loyihalash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Shahar qurilishi va loyihalash ta'lim yo'nalishi – arxitektura-qurilish sohasidagi yo'nalish bo'lib, u davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), loyiha tashkilotlari, ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari belgilash bo'yicha boshqarish, tashkiliy masalalar yechimlarini rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalardan iborat kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal ho'jaligi vazirligi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalarda;

shaharlarni tashkil etuvchi bino va inshootlar hamda turar-joy maskanlarini bosh rejasini ishlab chiquvchi ilmiy tadqiqot institutlari va loyiha tashkilotlarida;

shahar hududi (turar-joy maskanlari, ma'muriy va yashil xududlar)ni rejalashtirish, qurish, rekonstruksiya va renovatsiya qilish tashkilotlarida;

shaharlardagi mavjud bino va inshootlarni hamda turar joy maskanlarini ekspluatatsiyasi, rekonstruksiya qilish, eski hududlarni renovatsiya hamda ularni monitoring qilish tashkilotlarida;

shahar hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, sanitar tozalash xizmati tashkilotlarida;

shahar ko'cha-yo'llari va shahar muhandislik tarmoqlarini loyiha rejasini ishlab chiquvchi ilmiy tadqiqot institutlari va loyiha tashkilotlarida;

shahar bosh rejasida transportni rejalashtirish, transport ob'ektlarini loyihalash qurish va rekonstruksiya qilish tashkilotlarida;

ishlab chiqarish korxonalarida;

davlat boshqaruvi organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechish;

60730900 - Shahar qurilishi va loyihalash ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, ilmiy tadqiqot institutlari va loyiha tashkilotlari, qurilish tashkilotlari, shahar hududini istiqbolli rejalashtirish, qurish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, sanitar tozalash xizmati tashkilotlari, eski turarjoy maskanlarini renovatsiya qilish, mavjud bino va inshootlarni ekspluatatsiyasi, ularni rekonstruksiya qilish tashkilotlari, shahar ko'cha-yo'llari va shahar muhandislik tarmoqlarini rejalashtirish va ekspluatatsiya qilish tashkilotlari, shahar jamoat transporti rejalashtirish va transport ob'ektlarini loyihalash qurish va rekonstruksiya qilish tashkilotlarida faoliyat olib borish hamda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

ilmiy-tadqiqot;

loyihaviy-konstruktorlik;

ishlab chiqarish-texnologik;

tashkiliy-boshqaruv;

axbarot-tahliliy.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60730900 - Shahar qurilishi va loyihalash ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

biologiya fani sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

loyihalash sohasida: shaharlarni rejalashtirish, loyihalash, loyihalash jarayonida tizimli yondoshish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, shahar yo'l-transport tarmoqlarini rejalashtirish, loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishda muhandislik hisoblarini bajarish;

texnologiya sohasida: shaharlar va shahar yo'l-transport tarmoqlarini qurish texnologik jarayonlarini tashkil qilish, qurilishda texnologik jarayonlarni sifatini ta'minlash, ularni nazorat qilish;

foydalanish sohasida: shaharlar va shahar yo'llarini ekspluatatsiyasi texnologik jarayonlarini tashkil qilish, shahar ko'cha-yo'l tarmoqlarini rekonstruksiya qilishni tashkil etish;

ilm-fan sohasida: ilmiy-tadqiqot institutlarida va laboratoriyalarida ilmiy-amaliy va tajribaviy tadqiqotlarni zamonaviy uslublar bo'yicha o'tkazish;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish sohasida: shaharlar qurilishini tashkil etish va boshqarish;

iqtisodiy sohasida: muhandislik yechimlarida texnik-iqtisodiy tahlil, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash;

ta'lim sohasida: kasb-hunar ta'limi muassasalarida maxsus fanlardan dars berish;

kasbiy mahorat bo'yicha: o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil qo'llashi va faoliyati davomida samarali foydalanish talablariga javob berish;

amaliyotda: axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

shaharlarni rejalashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiya va ekspluatatsiya qilishda texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash, texnologik jarayonlarni sifatini ta'minlash, ularni nazorat qilish;

qurilishda qo'llaniladigan mahsulotlar va materiallar sifatini baholash;

texnologik jarayonlarni tahlil qilish, sintez qilish va optimallashtirish metodlarini qo'llash;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish hamda ulardan foydalanish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

shaharsozlikdagi muammolarni tahlil qilgan holda istiqbolli rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqa olishi;

shaharsozlikda arxitekturaviy-muhandislik masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

shaharlarlarni, ulardagi turar-joy maskanlarni rejalashtirish, qurish, ekspluatatsiya qilish va eski hududlarni renovatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlaria belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

Axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

Boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilim va tasavvurga ega bo'lishi;

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish usullarini qo'llay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

Shahar qurilishi va loyihalash faoliyat turi bo'yicha arxitektura va qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

shaharlarni va shahar aholi punktlarini rejalashtirish, qurish hamda rekonstruktsiya qilish bilan bog'liq loyihalarni ishlab chiqish kompetensiyasiga ega bo'lish;

zamonaviy shaharlar hamda shahar aholi punktlarini bosh rejasini loyihaviy yechimlarini ishlab chiqish, shahar hududini funksional zonalashtirish, loyihalash va me'yoriy talablar asosida hisoblash ishlarini bajarish kompetensiyasiga ega bo'lish;

shahar hududini rejalashtirishda hududni infrastrukturasini, ko'cha-yo'l tarmog'ini loyihalash, shaharsoz-muhandis vazifalarni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

shahar va shahar aholi punktlarini loyihaviy va ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy ishlarini rasmiylashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

shahar hududidagi turar-joy va jamoat binolari obyektlarining texnologik jarayonlarning hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo'llashni bilish;

shaharlarni rejalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilishda va shahar bosh rejasi loyihasining sifatini hamda qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish, qurilishni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish kompetensiyasiga ega bo'lish;

shahar bosh rejasi, master plan loyihalarini ishlab chiqishda texnik hujjatlarni (shaharsozlik normalari va qoidalari, standartlar, yo'riqnomalar, rejalar, loyiha-smeta ishlarini) tuzishni bilish;

qurilish, ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladigan shahar hududlarni qurilishga tayyorlash, qurilish obyektlarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish kompetensiyasiga ega bo'lish;

kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalaridan foydalanishni bilish va muhitlarini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kridet miqdorlari	Semestri
1.00		Umumiy majburiy fanlar	5040	76	1,2,3,4,7
1.01	O'RT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	O'EYAT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	MM1110	Muhandislik matematika	300	10	1,2
1.04	ChGMG1108	Chizma geometriya va muhandislik grafikasi	240	8	1,2
1.05	JTS 1104	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	1
1.06	AShA 1110	Arxitektura va shaharsozlik asoslari	300	10	1,2
1.07	XT1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.08	QF 1204	Qurilishda fizikasi	120	4	2
1.09	D1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	QAT(M)1204	Qurilishda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.11	QM1408	Qurilish mexanikasi	240	8	4,5
1.12	MF1404	Muhandislik falsafa	120	4	4

1.13	ShI1704	Shaharsozlik iqtisodiyoti	120	4	7
Shahar qurilishi va loyihalash faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
			2400	80	1-7
1.14	L1.1308	Loyihalash 1. Shahar hududini muhandislik tayyorlash	240	8	3,4
1.15	L2.1308	Loyihalash 2. Shahar qurilishi va loyihalash asoslari	240	8	3,4
1.16	ShI1308	Shahar iqlimshunosligi	120	4	3
1.17	IG 1304	Injenerlik geodeziyasi	120	4	3
1.18	QMB 1304	Qurilish materiallari va buyumlari	120	4	3
1.19	ShHO1404	Shahar hududini obodonlashtirish	120	4	4
1.20	ShTR1604	Shaharlarda transportni rejalashtirish	120	4	6
1.21	L3.1508	Loyihalash 3. (Shahar ko'cha-yo'llarini rejalashtirish)	240	8	5,6
1.22	L4.1504	Loyihalash 4. Shaharlarni rejalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish	120	4	5
1.23	BIK1508	Bino va inshootlar konstruksiyalari	240	8	5,6
1.24	BIBET1508	Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi	240	8	5,6
1.25	BIE1608	Bino va inshootlar ekspluatatsiyasi	240	8	6,7
1.26	BRE1704	Binolar rekonstruksiya va energiyasamaradorlik	120	4	7
1.27	L5.1704	Loyihalash 5. Aqlli shahar konsepsiyasi	120	4	7
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	3-7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1620	54	3-7
Kvalifikatsiya		Shaharsoz-muhandis			
Shahar yo'l-transport tarmoqlarini rejalashtirish faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
			2220	74	1-7
1.14	ShHMT1208	Shahar hududini muhandislik tayyorlash	240	8	2,3
1.15	ShQLA1310	Shahar qurilishi va loyihalash asoslari	300	10	3,4
1.16	SHKYM1508	Shahar ko'cha-yo'llari muhandisligi	240	8	5
1.17	ShHYVR1604	Shahar hududlarini va yo'llarini vertikal rejalashtirish	120	4	6
1.18	SHYTTR1610	Shahar yo'l-transport tarmoqlarini rejalashtirish	300	10	6,7
1.19	AShK1804	Aqlli shahar konsepsiyasi	120	4	8
1.20	ShYHTE1408	Shahar yo'llarida harakatni tashkil etish	240	8	4,5
1.21	ShTMJ1408	Shaharsozlik texnologik mashinalari va jihozlari	240	8	4,5
1.22	ShHMOKJ1708	Shahar hududlarini muhandislik obodonlashtirish va ko'chalarni jihozlash	240	8	7,8
1.23	ShRQRQ1706	Shaharlarni rejalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish	180	6	7
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	3-7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1620	54	3-7
Kvalifikatsiya		Shaharsoz-muhandis			
Shahar ko'chalari, yo'llari va transport faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
			2400	80	1-7

1.14	L1.1308	Loyihalash 1. Shahar hududini muhandislik tayyorlash	240	8	3,4
1.15	IG 1308	Injenerlik geodeziyasi	240	8	3,4
1.16	ShI1304	Shahar iqlimshunosligi	120	4	3
1.17	ShQLA13 10	Loyihalash 2. Shahar qurilishi va loyihalash asoslari	120	4	3
1.18	QMB 1304	Qurilish materiallari va buyumlari	120	4	3
1.19	SHKYM1 408	Shahar ko'cha-yo'llari muhandisligi	120	4	4
1.20	ShTR1604	Shaharlarda transportni rejalashtirish	120	4	6
1.21	R4.1508	Loyihalash 3. (Shahar ko'cha-yo'llarini rejalashtirish)	240	8	5,6
1.22	L4.1504	Loyihalash 4. Shaharlarni rejalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish	120	4	5
1.23	SHYTTR 1508	Shahar yo'l-transport tarmoqlarini rejalashtirish	240	8	5,6
1.24	ShTMJ15 08	Shaharsozlik texnologik mashinalari va jihozlari	240	8	5,6
1.25	ShHMOK J1608	Shahar hududlarini muhandislik obodonlashtirish va ko'chalarni jihozlash	240	8	6,7
1.26	ShII1704	Shahar injinerlik inshootlari	120	4	7
1.27	AShK170 4	Loyihalash 5. Aqlli shahar konsepsiyasi	120	4	7
2.00		Tanlov fanlari (13 ta)	1620	54	3-7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1620	54	3-7
	Kvalifikatsiya	Shaharsoz-muhandis			
		Jami:	6300	210	
			720	24	8
		Malakaviy amaliyot*			
		Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va himoya qilish	180	6	8
		Jami:	900	30	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 711

Guruh T 55

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka, amaliyot, attestatsiya, shaharsozlik, shahar hududi, landshaft arxitekturasi, bosh reja, muhandislik tarmoqlari va jihozlari, arxitekturaviy loyihalash, kompozitsion modellashtirish, urbanistika va urban dizayni, arxitektura va shaharsozlik asoslari, bino va inshootlar tipologiyasi, arxitekturaviy konstruksiya, hududni muhandislik tayyorlash, hududlarni muhandislik obodonlashtirish, shaharsozlik asoslari.

Shahar yo'l-ko'cha tarmog'ini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha davlat texnik yo'l siyosatining mohiyati. Shahar yo'llari va ko'chalarini loyihalashni tashkil etish. Shahar yo'llari va ko'chalarining tasniflanishi. Shahar yo'llari va ko'chalarining asosiy elementlari. Shahar yo'llarining kesishish va tutashish joylarini loyihalash. Yo'l poyini va yo'l to'shamasini loyihalash. Shahar yo'llari va ko'chalarini loyihalashda avtomatlashtirilgan loyihalash texnologiyalari. Shahar yo'llari va ko'chalarini jihozlash. Shahar yo'llari va ko'chalarini qurish texnologiyalari. Yo'l poyi va yo'l to'shamalari asoslarini qurish. Asfaltbeton va sementbeton qoplamalarini qurish. Shahar yo'llari va ko'chalarini ekspluatatsiya qilishga tizimli yondashish. Shahar yo'llari va ko'chalarini ta'mirlash va saqlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish. Shahar yo'llari va ko'chalarini ta'mirlash va saqlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish. Shahar yo'llari va ko'chalarini saqlash. Shahar yo'llari va ko'chalarini joriy va mukammal ta'mirlash. Shahar yo'llari va ko'chalarini rekonstruksiya qilish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:



Tashkent arxitektura-qurilish universiteti

Rektori V.V.B.

B.A.Tulaganov

KELISHILGAN:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni
tathiq etish markazi**

Direktor M. Boltaboyev

2024 yil «
M.O’



“O‘ZSHAHARSOZLIKLITI” DUK

Direktor B.X. Elmuradov

2024 yil «
M.O’



**Qurilishda texnik me’yorlash va
standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti**



Direktor

SH.Sodiqov

2024 yil «
M.O’

Toshkent Uyjoy LITI AJ

Direktor

B.B.Ubaydullayev



2024 yil «
M.O’

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
60730900 - Shahar qurilishi va loyihalash ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari va o’quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o’rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “O’ZSHAHARSOZLIKLITI” DUK bosh direktori B.X.Elmuradov, “Qurilishda texnik me’yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti” direktori Sh.Sodiqov, Toshkent Uyjoy LITI AJ bosh direktori B.B.Ubaydullayev, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori v.v.b. B.A.Tulaganov birgalikda TAQUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari va o’quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60730900 - Shahar qurilishi va loyihalash ta’lim yo’nalishi.

Malaka talablari hamda o’quv rejani ishlab chiqilishida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son, 2022 yil 8 noyabrdagi “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-416-son, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2023 yil 2 maydagi “Arxitektura-qurilish muhandisligi sohalari rahbar va mutahassislari hamda ishchi kasb egalarining malakasini oshirishi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 179-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o’quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo’yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari o’quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo’lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o’quv rejani o’rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

“O’ZSHAHARSOZLIKLITI” DUK bosh direktori


B.X. Elmuradov

“Qurilishda texnik me’yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti” direktori


SH. Sodiqov

“Toshkent Uyjoy LITI” AJ bosh direktori


B.B. Ubaydullayev

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori v.v.b.


B.A. Tulaganov